

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RADJAPOV ODILBEK BABANAZAROVICH

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON FUQAROLARIDA ZIYOLILIK
MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Radjapov Odilbek Babanazarovich

Yangilanayotgan O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish
omillari (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 3

Раджапов Одилбек Бабаназарович

Факторы повышения интеллектуальной культуры граждан
обновленного Узбекистана (социально-философский анализ) 21

Radjapov Odilbek Babanazarovich

Factors of increasing of intelligence culture among the citizens of the
renewed Uzbekistan (socio-philosophical analysis) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RADJAPOV ODILBEK BABANAZAROVICH

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON FUQAROLARIDA ZIYOLILIK
MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fa1568 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Maxmudova Aziza Nugmanovna
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "6" aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 31 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" mart kuni tarqatildi.
(2023-yil "23" mart dagi 31 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugun jahonda pandemiya sabab yuzaga kelgan murakkab global o'zgarishlar insoniyatdan fan-texnika taraqqiyotini yangicha sifat bosqichiga ko'tarishni talab qilmoqda. Buning uchun esa, har qanday jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy va boshqa munosabatlarning to'g'ridan-to'g'ri ifodasi bo'lgan ziyolilik madaniyatini yuksaltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Demak, global o'zgarishlar sharoitida shubhasiz, ziyolilar deb ataladigan aholining intellektual qismining roli oshib boradi, chunki bu jarayon bir qarashda iqtisodiy asoslarga va siyosiy shart-sharoitga ega bo'lsa-da, aslida u intellektual madaniyatning jahon miqyosidagi ustunligini tobora oshkor qilmoqda. Shuning bilan bir qatorda, madaniyat, ta'lim va gumanitar sohaga alohida ahamiyat berilayotgani shubhasiz, fuqarolik jamiyati rivojlanish darajasiga faol ta'sir ko'rsatadigan ziyoli qatlamning samarali faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Dunyoning ilg'or oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida ziyolilik madaniyatining ijtimoiy-tarixiy genezisi hamda ularni turkumlashtirish tamoyillarini tanqidiy tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish va analitik tafakkur asosida o'rganish, yoshlarni aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan va mustaqil mulohaza yurituvchi qilib tarbiyalashda ziyolilik talablaridan kelib chiqqan holda ish tutish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai-nazardan, dunyoning ko'pgina davlatlarida fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda ziyolilik madaniyatini qaror toptirish asosida ularda ilm-fanga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, ilmiy-ijodiy tadqiqotchilik faoliyatini yanada yuksaltirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, unga nisbatan ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tizimlashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarda ziyolilik madaniyatini yuksaltirishda ularda asosan ilmiy tushunchalar, tasavvurlar, ya'ni differensiallashgan nazariy bilimlar, g'oyalarning mantiqiy tafakkurni shakllantirish hamda intellektual va kreativ qobiliyatlarini amalga oshirishga doir ilmiy izlanishlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga ularning intellektual madaniyatini yuksalishi natijasida nazariy aqlga, fan yutuqlariga tayanadigan bilim, ko'nikma va malaka hamda kasbiy faoliyatlarini rivojlantirishni taqoza etmoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va, albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik – bu aql-zakovat, ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"¹. Shu ma'noda ziyolilik madaniyatini yuksaltirishning milliy madaniyat, ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy izlanishlar bilan bog'liq jihatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Ташкент: "O'zbekiston", 2021. – С. 24

to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 31-maydagi PQ–3022-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ–3160-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ–406-son Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz ilm-fan rivojining yangi bosqichini boshlab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlaridagi ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ilm-fan, texnologik va innovatsion taraqqiyot asoslarini belgilash bilan bog‘liq vazifalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Ziyolilik madaniyatini falsafiy jihatdan anglash universal (dunyo hodisasi sifatida), maxsus (tarixiy va madaniy hodisa sifatida) va singular (ma‘lum bir odamda aql-idrok fazilatlarining mavjudligi) darajasida ham amalga oshiriladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, aynan faylasuflar ziyolilarning umuminsoniy mohiyatiga alohida e‘tibor qaratadilar. Masalan, N.N.Moiseyev ziyolilik bu aql evolyusiyasining mahsuli ekanligini ta‘kidlasa, V.I.Vernadskiy va Teyar de Sharden¹ ziyolilik bu insonning ma‘naviy-ruhiy mohiyatining yuksak qadriyatlarga asoslanishi, umuminsoniy xulq-atvor shakli deb tushuntiradi. Ya‘ni, jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy yetaklovchi subyekti sifatida talqin etadi.

Ziyolilikning mazmuni, tuzilishini to‘liq anglamay turib ziyolilik madaniyatining mohiyatini tushunib bo‘lmaydi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, tadqiqot mavzusi doirasidagi muammolarni o‘rganishda ziyolilikning mantiqiy-psixologik asoslari, strukturaviy elementlari, uning boshqa shakllari bilan o‘zaro aloqadorligi hamda ta‘limning unga ta‘siri bilan bog‘liq masalalar tizimli tahlil qilgan M.K.Akimova², A.N.Voronin, Ye.A.Valueva, Ye.V.Dudorova³, Z.X.Sierralta, N.A.Lujbina⁴ va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Тейяр де Шарден - Феномен человека. Сборник очерков и эссе (2002).- М.: ООО «Издательство АСТ», 2002.- С.553.

² Акимова М.К. Психологическая диагностика. – М.: Наука, 2008. – 231 с.

³ Дудорова Е.В. Введение в дифференциальную психологию: учебное пособие. – М.: Изд-во Московского психолого-социального университета, 2020 – 188 с.

⁴ Лужбина Н.А. Социальный интеллект как системообразующий фактор психологической культуры личности: Дис.... канд. психол. наук: Барнаул, 2002 192 с.

Jamiyatda ziyolilik madaniyati rivoji fandagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Muammoning ushbu jihati bilan bog'liq ayrim falsafiy masalalari I.A.Bikovskiy, N.Yu.Trushkina, A.S.Stepanenko, R.V.Shutov¹, O.D.Shipunova², D.A.Rostovix, A.Ye.Nikitin, N.Yu.Popova³ kabi olimlar ilmiy ishlarida tadqiq etilganini qayd etish zarur.

Mamlakatimizda U.Kerimov, H.Yorqulov, N.Rizayev, O.Oqyulov, M.Qalandarova⁴, V.I.Andriyanova⁵ kabi tadqiqotchilar ziyolilik madaniyati to'g'risida alohida tadqiqot olib bormagan bo'lsalar-da, lekin badiiy-falsafiy va huquqiy muammolariga bag'ishlangan izlanishlarda uning tarkibiga oid jihatlarni tilga oladilar. Uning uch elementi, ya'ni intellektual-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatlarini tavsiflaydi. Birinchi elementiga fan asoslarini egallash, shuningdek, shaxsda intellektual qobiliyat va malakalarni shakllantirishni kiritadi. Ikkinchi jihat ziyolilikning ijtimoiy-huquqiy omillarini tashkil qiladi, uchinchi esa, ta'lim obyekti va subyekti o'rtasidagi dialektik aloqadorlikdan tashkil topuvchi intellektual faoliyatda ziyoli insonlarning o'rnidir.

A.A.Aziziqulov, L.A.Qurbonova, A.A.Qambarov, Z.K.Asrarova, D.R.Kenjayeve, F.U.Musinov, D.Yu.Xodjayeve, T.H.Qurbonov⁶, F.N.Jo'raqulov⁷ kabi tadqiqotchilar ziyolilikning madaniy-ma'naviy, protsessual, ijodiy va qadriyatli-emotsional tomonlariga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlarida ziyolilik aqliy qobiliyat, aqliy ehtiyoj, ijodiy malaka va layoqatlar yig'indisi tarzida qarab chiqiladi, jamiyat va shaxsning innovatsion va informasion faoliyati bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Ziyolilik madaniyatini yuksalishida shaxsning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faolligi masalalariga alohida o'rin berishi asoslab o'tiladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili yangilanayotgan O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish omillari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida alohida olingan holda o'rganilmaganini ko'rsatadi. Bu tadqiqot mavzusini ilmiy o'rganish obyekti sifatida tanlab olinishiga sabab bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

¹ Шутов Р.В. Гносеологический анализ природы и сущности искусственного интеллекта: диссертация ... кандидата философских наук: Тамбов, 2002.- 159 с.

² Шипунова О.Д. Интеллект и субъективность (социально-философский анализ): Дис. ... д-ра филос. наук. - Санкт-Петербург, 2004. -С. 354.

³ Попова Н Ю. Интеллект как репрезентация и отражение действительности: Дис....канд. филос. наук: Красноярск, 2006 168 с

⁴ Қаландарова М. Таълим жараёнида ўқувчиларни ақлий-интеллектуал ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари / «Uzluksiz ta'lim» ilmiy-uslubiy jurnal. - Т.: «Шарқ», 2010. № 1. -Б.15-17

⁵ Андриянова В.И. Интеллектуальное воспитание и обучение учащихся. / «Халқ таълими» илмий-методик журнал. -Т., 2005, №1. -Ст. 138-143.

⁶ Курбонов Т.Х, Ёшларда миллий ғурурнинг шаклланишида маданий мероснинг роли: фалс.фан.номз. дисс...автореф-Т.:ЎзМУ, 2005.- Б. 12.

⁷ Жўракулов Ф.Н. Фуқаролик жамиятини қуриш шароитида давлат ижроия ҳокимияти тизимини модернизациялаш. сиёс.фан.док. ... дисс. –Т., 2018. – Б. 212.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini rivojlantirish omillarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh avlodda ziyolilik madaniyatini shakllantiruvchi hamda bu jarayonni ratsional idrok etish va oqilona baholash munosabatlarini ilmiy nuqtai-nazardan yoritishda ta’lim va tarbiya tizimining uyg‘unlashtirish zarurati, maqsadi, vazifalari va imkoniyatlariga aniqlik kiritish;

rivojlangan mamlakatlarning o‘z fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish borasidagi tajribasi, bu borada ular olib borayotgan davlat strategik siyosatining mazkur tizim subyektlari faoliyatini samaradorligini ta’minlashdagi rolini qiyosiy o‘rganish;

O‘zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish strategiyasining xususiyatlari, ushbu yo‘nalishda maxsus konsepsiya yaratish ehtiyoji va milliy ma’naviyat, milliy g‘oya kabi omillarning zaruratini asoslashdan iborat;

“ziyolilik” va “ziyolilik madaniyati” tushunchalarining ta’rifi, chegaralari, tarixiy va zamonaviy xususiyatlari, tasniflarini tuzish asosida uning kategorial tushunchalarini shakllantirish, bu boradagi nazariy-uslubiy muammolar ko‘lamini aniqlash;

Tadqiqotning obyektini O‘zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda fuqarolarning ziyolilik madaniyatini rivojlantiruvchi omillar va ularning jamiyat rivojiga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiyada ilmiy bilishning tuzilmaviy-funksional, qiyosiy-tarixiy, kauzal tahlil, mantiqiylik, kuzatuv, so‘rov kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh avlodda ziyolilik madaniyatini shakllantiruvchi ratsional idrok etish, oqilona baholash, ta’lim-tarbiya tizimi uyg‘unligi va aqliy tarbiya kabi subyektiv determinantlar (belgilovchi va uning paydo bo‘lishida yordam beruvchi sabab va sharoitlar)ni optimallashtirish zarurligi mantiqiy jihatdan isbotlangan;

rivojlangan mamlakatlarning o‘z fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish borasidagi ilg‘or vorisiylik tajribasi, olib borayotgan istiqbolli islohotlari davlat strategik siyosatining mazkur tizim subyektlari faoliyati samaradorligini ta’minlashdagi rolini oshirish segmentatsiyasi (ajratilishi), ma’naviy-axloqiy va axloqiy madaniyat akkumulyasiyasi (qo‘shilishi) asoslab berilgan;

O‘zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan maxsus konsepsiya yaratish ehtiyoji zaruratining tashkiliy paradigmadagi o‘zgarishlar tizimining mental xususiyatlaridagi kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish darajalari ochib berilgan;

“Ziyo”, “ziyolilik” va “ziyolilik madaniyati” tushunchalari bugungi davr shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonidagi bilimlarning zamonaviy xususiyatlarini fuqarolar ongiga singdirish transformatsiyasi, generatsiyasi va reguliyativ ta’sirini kognitiv komponentlarini oshirish mezonlari falsafiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini rivojlantirish strategiyasining xususiyatlari, ziyolilik madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari, samarali yo'llari va vositalari ko'rsatilgan;

fuqarolarda ziyolilik madaniyatini, bilim va salohiyati, faolligini yuksaltirishda ta'lim tizimlari, ijtimoiy-siyosiy institutlar, zamonaviy gnoseologik ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

yoshlarni ziyolilik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonidagi mavjud muammolarni hal etish, yoshlar kreativ faoliyatini ta'minlashda metodik yondashuvlar aniqlangan;

fuqarolarda "ziyolilik" va ziyolilik madaniyati" yuksaltirishning ijtimoiy-ma'naviy hamda ma'rifiy ahamiyati va bu faoliyatni rivojlantirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va u haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish jarayonlarini o'rganishga yangicha yondashuvlar asosida uning barqaror taraqqiyot strategiyasini ta'minlash borasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarni ilmiy-uslubiy jihatdan kuchaytirishi bilan belgilanadi va ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan qator kategorial tushunchalar falsafa sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining joylardagi bo'limlari, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, o'zini-o'zi boshqarish organlari, "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" faoliyatida, yoshlar bilan uyushtiriladigan muloqot, davra suhbatlarida hamda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Mamlakatimizda ziyolilik madaniyatini, uni rivojlantiruvchi omillar va ularning jamiyat rivojiga ta'sirini asoslab berishga qaratilgan ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar asosida:

yosh avlodda ziyolilik madaniyatini shakllantiruvchi ratsional idrok etish, oqilona baholash, ta'lim-tarbiya tizimi uyg'unligi va aqliy tarbiya kabi subyektiv determinantlar (belgilovchi va uning paydo bo'lishida yordam beruvchi sabab va sharoitlar)ni optimallashtirish zarurligiga oid taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining

tadqiqodlari asosida SMART texnologiyalarni yaratish” mavzusidagi I-FA-2019-25 raqamli va “Dorul hikmat val maorif” zamonaviy virtual muzeyini yaratish” mavzusidagi PZ-2020103078 raqamli amaliy loyihalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma’mun akademiyasining 2022-yil 16-maydagi 81/2-22-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyihalarning tarixiy-falsafiy jihatlarini nazariy va amaliy jihatdan yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

rivojlangan mamlakatlarning o‘z fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirish borasidagi ilg‘or vorisiylik tajribasi, olib borayotgan istiqbolli islohatlari davlat strategik siyosatining mazkur tizim subyektlari faoliyati samaradorligini ta’minlashdagi rolini oshirish segmentatsiyasi (ajratilishi), ma’naviy-axloqiy va axloqiy madaniyat akkumulyasiyasi (qo‘shilishi) asoslab berilganligiga oid xulosalar va amaliy tavsiyalardan “Yuksalish” umummilliy harakatining O‘zbekistonda “Innovatsiyalar uchun hamkorlik” dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (“Yuksalish” umummilliy harakatining 2022-yil 13-iyundagi 03-08/200-son ma’lumotnomasi). Natijada mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq davlat, sohaga oid va hududiy dasturlarini ishlab chiqish ishlarini yanada takomillashtirishga hamda fuqarolarda ziyolilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan maxsus konsepsiya yaratish ehtiyoji zaruratining tashkiliy paradigmadagi o‘zgarishlar tizimining mental xususiyatlaridagi kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish darajalari ochib berilganliga oid amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limining “O‘zbekiston Respublikasida 2021-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi”ning II yo‘nalishiga oid “O‘zbekistondagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohatlar mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan umummilliy harakatini yuzaga keltrish chora-tadbirlari” bilan bog‘liq 9-bandli ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yil 6-iyundagi 137-son ma’lumotnomasi). Natijada respublika miqyosida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

“Ziyo”, “ziyolilik” va “ziyolilik madaniyati” tushunchalari bugungi davr shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonidagi bilimlarning zamonaviy xususiyatlarini fuqarolar ongiga singdirish transformatsiyasi, generatsiyasi va regulativ ta’sirini kognitiv komponentlarini oshirish mezonlariga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan 2021-2022-yillarda efirga uzatilgan “Millat va ma’naviyat”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 30-maydagi 04-36-769-son ma’lumotnomasi). Natijada Yangi O‘zbekiston yoshlarida ziyolilik madaniyatini

yuksaltirish hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ziyolilik mas'ulyatini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Fuqarolarda ziyolilik madaniyatini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanadi. Ushbu bobda "ziyo", "ziyolilik", "intelligensiya" so'zlarni lug'aviy ma'nosi va ta'riflari falsafiy jihatdan tahlil etiladi. O'zbek tilidagi ziyoli so'zining o'zagida ziyo, nur ma'nosi yotadi. "Ziyo" so'zi ilm, ma'rifatni ifodalashda qo'llanadi, "ziyoli" so'zi ilmi, ma'rifatli, bilimdon kishi ma'nosini anglatadi. Ziyolilar yuksak axloqlilik va demokratizm timsoli, yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan, turli xurofotlardan xoli insonlar hisoblanadi. Yovuzlik, tajovuzkorlik, shafqatsizlik, ochko'zlik singari tuban xususiyatlar ziyolilikka ziddir. O'zida bunday salbiy sifatlar bo'lgan ziyoli aql-idrokni, ilmni yovuz maqsadlarga xizmat qildirishi mumkin. Ziyolilar atamasini intelligensiya atamasining tarjimai sifatida O'zbekistonda XIX asrning oxiri - XX asrning boshida dastlab jadidlar qo'llashgan."¹.

Bobda ziyolilik aql-idrokni o'z ichiga olishi va zamonaviy ziyolilarning zaruriy mulki ekanligi haqida ham so'z yuritiladi. Shu boisdan ham "Intellekt (lot. intellects - bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3 ҳарфи. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 94.

imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellect saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi"¹.

Intellegensiya ta'rifi bo'yicha, despot, kinik, egoist bo'lishi mumkin. Ammo ziyolilik - bu professional (intellektual), ma'naviy va axloqiy jihatdan eng rivojlangan ijodiy faoliyat shakli desak to'g'ri bo'ladi. Falsafiy kategoriya sifatida ziyolilikning nazariy tushunchasi quyidagi umumiy qoidalarga asoslanadi: 1) umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni topish prinsipi; 2) tarixiylik prinsipi; 3) nima to'g'ri va nimani topish prinsipi; 4) uzluksizlik prinsipi; 5) bir-birini to'ldiruvchi prinsipi. Ular ushbu hodisaning mazmunidagi umuminsoniy va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi, uning rivojlanish jarayonini izchil va mantiqiy ravishda ochib beradi, ma'lum bir ideal obrazni yaratadi va voqelik bilan taqqoslaydi, asosiy g'oyalar va mualliflik pozitsiyalarini tanqidiy tahlil qilishga keng imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, insonlarning aqliy faoliyati intellekt vositasida amalga oshiriladi. Jamiyatning taraqqiyoti, shaxsning muvaffaqiyati (yoki muvaffaqiyatsizligi) u yoki bu tarzda ularning aqliy va ma'naviy-ruhiy faoliyatining o'zaro aloqadorligidadir. Hozirgi kunda, zamonamizning murakkab sharoitlarida inson va insoniyatga asl madaniy, ta'sirchan intellektual faoliyat zarur. Faqat shunday intellektgina insoniy hayotining asl mazmunini hamda asl ilmiy qadriyatlarni belgilashga qodir deb hisoblanmoqda. Ta'lim va tarbiyaning dolzarb zamonaviy muammolari ham intellektning amal qilishi tabiati hamda mexanizmini tushinish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Shu boisdan ham I.B.Siddiqov "Intellect asosini dunyoviy bilimlar majmuasi tashkil qiladi, ular o'rtasidagi aloqa dialektik jarayon tarzida amal qiladi: bilimlar, bir tomondan, bilish faoliyati natijalari bo'lsa, boshqa tomondan, inson faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi. Intellect bilish va har qanday faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi, boshqalarga asos bo'luvchi umumiy qobiliyat ekanligi u individning sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, hayoldan iborat bilish qobiliyati tizimidir. Ta'kidlash lozimki, intellekt muayyan ijtimoiy muammolarni inson aqli yordamida samarali va aniq hal etish imkoniyatidir"². Ziyolilar tabiati va funksiyalarini aniqlashdagi qiyinchiliklar tarixiy taraqqiyotning uzoq va ziddiyatli jarayonini aks ettiradi. Shubhasiz, ziyolilarning maxsus ijtimoiy guruh sifatida paydo bo'lishi uchun zaruriy (ammo yetarli emas) shart aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratish bo'lgan edi. Bu qadimgi davrlarda allaqachon sodir bo'lgan. Ammo antik davr va o'rta asrlarning intellektual elitasi zamonaviy ziyolilar bilan bir xil vazifani bajarmaganlar. Chunki o'tmishda intellektual faoliyatning o'zi hali yetarlicha farqlanmagan edi. Bir xil ijtimoiy guruh turli xil funksiyalarni bajargan: masalan, ruhoniylar bir vaqtning o'zida to'plangan bilimlarni saqlovchi va mafkurachilar va targ'ibotchilar bo'lganlar. Aksincha, bitta funktsiyani turli toifadagi odamlar

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. И ҳарфи. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 214.

² Сиддиқов И.Б. Ёшлар интеллектуал маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари: Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. – Б. 11.

bajargan¹. Shunday qilib, ijtimoiy tanqidchining rolini payg'ambarlar, ruhoniylar va saroy xizmatkorlari bajargan. Ushbu noaniqlik fikrlashning dogmatizmi va sxolastikasiga yordam berdi. Bu davrda ziyolilar ko'pchilikka - o'zgarmas haqiqatlar sifatida - tayyor dogmalar tizimini taqdim etish kerak edi, ularning isboti, agar mavjud bo'lsa, faqat bir nechta uchun mavjud edi. Haqiqiy hayotdagi ziddiyatlar ularda ko'pincha tanib bo'lmaydigan o'zgartirilgan shaklda aks etar edi, bu esa mafkurachilarni ommadan uzoqlashtirdi. O'ziga xos imtiyoz, erkin odamlar orasidagi aqliy mehnat bo'sh vaqtni o'tkazish shakli sifatida qaraldi. Aristotelning fikriga ko'ra yashash uchun ishlash kerak bo'lgan odam fuqaro bo'la olmaydi². Yunonistonda birinchi bo'lib ta'lim olish uchun pul olgan sofistlar aristokratlar tomonidan shafqatsizlarcha masxara qilingan. Antik davr oxirida va o'rta asrlarda paydo bo'lgan bepul xizmat intellektuallari asosan xizmatchilar lavozimida ishlagan edilar. Bu davrda shaxsning ijtimoiy mavqei uning faoliyatining tabiati bilan emas, balki uning sinfiy kelib chiqishi bilan belgilangan edi. Ushbu xilma-xil intellektual birliklarning o'ziga xos o'z-o'zini anglashi bilan avtonom ijtimoiy qatlamga aylanishi uchun bir qator zarur shartlar zarur edi. Avvalo, sinflar ierarxiasini yo'q qilish, faoliyat turining o'zgarishiga qarab o'z ijtimoiy mavqeini o'zgartirishning asosiy imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirishga ta'sir qiluvchi omillar”** deb nomlanadi. Ushbu bobda, shaxs madaniyati namoyon bo'lishni olib borayotgan faoliyatiga xosligini, shuningdek, talabalar intellektual madaniyatini shakllantirish ijtimoiy madaniy va professional tajribani o'zlashtirganligi bilan amalga oshirilishi kabi masalalar ochib berilgan. Bizning fikrimizcha, pedagogik ahamiyat jihatidan intellektual madaniyat individual ta'lim kabi shakllanib, rivojlanadi va o'zgarib turish xususiyatiga ega. Shu bilan birga kursantlar intellektual madaniyati shakllantirish deganda o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va uning pedagogik usullari, voqelik bilan hamohangligi va h.k nazarda tutiladi. Intellekt (kommunikativ konvensionallikka moslashuv qobiliyatidan iborat) va kreativlik (qisqa muddatlarda va ijtimoiy buyurtma asosida yangilikni taqdim qilish qobiliyatida ifodalanadi) zamonaviy shaxs xossalari, shuning bilan birga o'z-o'zini muvaffaqiyatli faollashtirish va ijtimoiy moslashuvchanlik asosi hamdir. Intellekt-daromad, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy ta'lim va ma'lumot darajasi, oilaviy sharoit va h.k kabi ijtimoiy iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kontekstga bog'liq (u yoki bu madaniyat asosdan yuzaga keladi yoki uning o'zi bilan chegaralanadi).

Mazkur bobda, intellekt va kreativlik komplementar nisbatida amal qilinishi kabi masalalar ham ilgari surilgan. Intellektning funksiyasi atrof-muhit bilan munosabatlarni optimallashtirish, u bilan qayta aloqa bog'lash, vaziyatlarni barqarorlashtirish va uni saqlashdan iborat. Kreativ ibtido esa ancha faol bo'lib, atrof-muhitni qayta o'zgartirishga qaratiladi, madaniy meros va an'analarga tayanishni istisno qilmagan holda. Bunday komplementar aloqaning o'ziga xosligi

¹ Dante Alighieri. The Divine Comedy. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 752 p.

² Aristotle. The Metaphysics. – New York, 1999. – 528 p. (Russ. ed.: Aristotel. Metafizika. Aristotel. Soch.: v 4 t. – Moscow, 1976. Vol. 1. P. 63-367).

bu ikki tarkibiy qismlardan birining dominantligidan tashkil topgan. Bizning fikrimizcha, intellektual elita, shuningdek, hozirda yangi sinf vakillari - kreatorlar sinfi, deb ham atalib, mamlakatga jahon sahnasida munosib o'rin egallashini ta'minlab, bugun zamonaviy axborot texnologiyalar sohasida oldin ko'rilmagan eksperimentlash erkinligini qo'lga kiritgan. Albatta, bunda erkinlik innovatsion, kreativ shaxsning texnokrat shaxsga aylanib qolishini ham istisno qilmaydi. Kreativ texnologiyalar subyekt faoliyatida mutlaq o'zgarishlarga olib kelib, insonga noma'lum vaziyatlarda fikrlashga yordam beruvchi, intellektual mashinalar fikrlash intensionalligi energiyasini pasaytiradi. Elektron mashinaning ishi inson uchun o'ziga xos intellektual tasavvurga aylanadi, qaysiki individning o'zining miyasi faoliyatidan uning o'ziga axborot berib turadi, chunki vazifasi ham kompyuter dasturi imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirishdan iborat.

Mamlakat kelajagi talablarini qondirishi mumkin bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi ijtimoiy institut - bu oliy o'quv yurtlaridir. Ular mamlakatning kadrlarga bo'lgan istiqbolli talablaridan kelib chiqqan holda shakllanuvchi ijtimoiy institutdir. Uning asosiy jihatlarini o'zida yetuk, malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni jamlash, o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, gumanitar ta'lim va tarbiya jarayonlari kompleksini ta'minlash, professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasida talab va taklif amaliyotiga ko'ra izlanuvchanlik, bilishga rag'bat, ilmiy ijodiyot, kasb malakasini egallashga ko'ra hamkorlik ruhini qaror toptirish tashkil etadi. Oliy o'quv yurtida talaba yuqorida keltirilgan muhitda ta'lim oladi va tarbiyalanadi, shaxs sifatida shakllanadi. Mazkur jarayon bugungi intellektual salohiyatga bo'lgan talabning beqiyos darajada ortib borayotgan bir sharoitida hozirgi zamon pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Bu texnologiyaga ko'ra bilim va ixtisoslik salohiyatini egallashning asosiy yuki talaba zimmasiga tushadi. Shuning uchun talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishning birinchi yo'nalishi ularning bilishga bo'lgan qiziqishining ortishi va unda talaba "men"ligining, javobgarlik darajasining ortib borishi hisoblanadi.

Interfaol ekran insonni o'z tarmog'iga shu darajada integrasiya qiladiki, u vaqti kelib, o'zini tarmoqning bir qismi sifatida his qilishigacha, o'zining shaxsiy "Men"ini virtual bilan aynan o'xshatadigan bo'lib qoladi. Kompyuterlarni ommaviy foydalanilishi, insonlar ongiga ta'sir qiladi, ularni to'g'ri va noto'g'ri tushunchalar haqidagi tasavvurlarini o'zgartirib yuboradi, insonning o'ziga xos madaniyatga o'tishini - kompyuter olamida shakllanib borayotgan, o'z an'analari, hayot tarzi, axloqiy normalari, o'ziga xos tiliga ega bo'layotgan "kibermadaniyat" vakiliga aylantirib qo'yadi. Demak, zamonaviy jamiyatda inson individualligi yo'qolishi tahdidi mavjud, bu bir tomondan, boshqa tomondan esa aynan innovatsion jamiyatda shaxs intilishlari, e'tirof va o'zining intellektual va kreativ qobiliyatlarini amalga oshirishga bo'lgan harakatlari faollashadi. Dissertatsiyada olib borilgan tadqiqotlar natijasida ziyolilikning rivojlanishiga halaqit beruvchi omillar ham aniqlangan, bular: 1) talabalarda bilishga qiziqishning barqarorligi; 2) ta'lim mazmuni va texnologiyalarining nomukammalligi; 3) professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro hamkorligi besamar xarakterda ekanligi. Ziyolilik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyatni intensivlashtirish uchun biz mazkur jarayonning quyidagi pedagogik shart sharoitlarni amalga oshirish zarur deb

hisoblaymiz: 1) Talaba-yoshlarda bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va mustahkamlash ziyolilik madaniyatining asosi sifatida qabul qilinishi; 2) Ta'lim jarayonining mazmun-mohiyati va texnologik komponentlarini takomillashtirish va faollashtirish; 3) Talaba-yoshlarning o'z-o'zini tashkillashtirishi va intellektual faoliyatini rivojlantirishda pedagoglar ko'mak berishi va qo'llab-quvvatlashi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, **“Yangilanayotgan O'zbekiston fuqarolarida ziyolilik madaniyatini yuksaltirishning strategik yo'nalishlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda, ilmiy salohiyat fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarining yig'indisidan iboratligi, ilmiy-texnika salohiyati esa amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, xususan, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarining yig'indisi ekanligi, hamda innovatsion salohiyat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning amalda, jumladan, ishlab chiqarishda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar va resurslarning yig'indisi hisoblanishi haqida so'z yuritilgan. O.Q.Mahmanov “Dunyoda ilmiy salohiyatni baholash usullari, bashoratlash masalalari va ma'lumotlarni intellektual tahlillash masalalarini yechish usul va algoritmlarini tadqiq qilish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan ushbu sohada, jumladan, oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyati va o'quv jarayoni monitoringini yuritishda axborot IDEF modellari, relyatsion algebra asosida monitoring ko'rsatkichlarining relyatsion hisoblashlarini bajaruvchi algoritmlarni takomillashtirish, ilmiy salohiyatni baholash ma'lumotlarini shakllantirish, yig'ish va ishlov berishga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasining axborot modellarini yaratish, ilmiy faoliyat bo'yicha qaror qabul qilishga ko'maklashish va nazoratini tashkil etish dasturiy vositalar majmuini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi”¹ deb ta'kidlaydi.

Ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion salohiyat ishlab chiqarish vositalari va usullarining samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, yangi texnologiyalar va mahsulotlarning o'zlashtirilishini jadallashtiradi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 29-oktabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi imzolangan Qonunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vakolatlari sifatida quyidagilar belgilab berilgandi:

- ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat ilmiy dasturlari, shuningdek, xalqaro dasturlarni shakllantirish bo'yicha takliflar beradi;
- ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;
- ilmiy faoliyat subyektlari uchun ilmiy asbob-uskunalaridan jamoaviy foydalanish markazlari, noyob ilmiy obyektlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish bilan bog'liq zarur shart-sharoitlarni yaratadi;
- ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini oshiradi va ilmiy darajali kadrlar tayyorlaydi;

¹ Маҳманов О.Қ. Олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари илмий салоҳиятини мониторинг қилиш усул ва моделларини яратиш: Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 5.

- ilmiy ishlanmalarni tijorlashtirishga ko‘maklashadi va ularning egalarini rag‘batlantiradi, shuningdek, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularning samarali ilmiy faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

- ilmiy tashkilotlar xodimlarini davlat va xalqaro mukofotlarga taqdim etadi;

- xorijiy davlatlar va mamlakatimiz ilm-fani yutuqlarini o‘rganadi, tahlil qiladi, ommalashtiradi hamda targ‘ib qiladi, ulardan O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

- chet el fanlar akademiyalari, ilmiy tashkilotlari va jamg‘armalari bilan hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro ilmiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda qatnashadi¹.

Bobda, jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berish, bu jarayonda ma‘naviy-ma‘rifiy merosimizdan samarali foydalanish lozimligi, ilm-fan sohasini ildam rivojlantirish, uning taraqqiyotida jahon sivilizasiyasi yutuqlaridan ijodiy foydalanish, eng muhimi, yuksak ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash jamiyatimiz hamda milliy davlatchiligimizni mustahkamlash strategiyasining tarkibiy qismini tashkil etishi borasida ham fikrlar yuritilgan. Ma‘lumki, har qanday sohadagi yangilanish muayyan zaminlarga suyanadi. Ilm-u fan sohasidagi islohotlarning mohiyat-mazmuni, yo‘nalish va istiqbollari to‘g‘risida so‘z borganda, uning quyidagi asosiy omillarini alohida ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. “Shu bilan birga oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy salohiyatini oshirishda turli mezonlar bo‘yicha monitoring qilishning axborot modellari, ilmiy salohiyat ko‘rsatkichlarining bog‘liqliklari aniqlovchi usullari, elektron hukumatning kompleks axborot tizimlari o‘rtasida ma‘lumot almashishning integrasiya modullarini ishlab chiqishda maqsadli ilmiy tadqiqotlar zarur”².

